



TILAME

*Mavzu:*

Rasmiy va shaxsiy  
xatlar, ularning turlari  
va farqlari

O'qituvchi: Ruzikulova G. F.



Xatlar juda xilma-xil bo'lib, muassasalar, korxonalar, tashkilotlar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjat sanaladi. Xat orqali bajariladigan masalalar ko'lami juda keng bo'lib, bunday yozishmalar vositasida turli ko'rsatmalar so'rovlar javoblar tushuntirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi.



TILAME

**XATLAR IKKI  
XIL BO'LADI:**

**RASMIY  
XATLAR**

**SHAXSIY  
XATLAR**



TIIAME

**Rasmiy xatlar tashkilotda  
ish yuritish jarayonida  
qo'llaniluvchi hujjatlarning  
umumiyligini miqdoriga  
nisbatan 80% ni tashkil etadi.**



**Rasmiy xatlar bosma ish qog'ozlariga yoziladi. Xat agarda oddiy qog'ozga yozilsa uning chap tomonidagi yuqori burchagiga xat jo'natajotgan muassasa nomi ko'rsatilgan to'rtburchak muhr qo'yiladi.**



TIIAME

**Har qanday rasmiy xati  
mantiqiy jihatdan o'zaro  
bog'liq uch qismidan iborat  
bo'ladi.**

**Xatning birinchi (kirish) qismida, odatda  
xat bilan tegishli muassasaga murojaat  
qilishga majbur etuvchi asosiy sabab  
ko'rsatiladi.**

**Ikkinci qismida xatda  
qo'yilayotgan masalani hal  
qilish zarurligi dalillar asosida  
bayon qilinadi**

**Xatning uchinchi (xulosa) qismida  
esa xat yozishdan ko'zlangan  
asosiy maqsad ifodalaniladi.**



TIIAME

**Qoidaga ko'ra xizmat xatlari bir betdan oshmasligi  
lozim.**

**Xizmat xatlari ikki nusxada yoziladi va imzolanadi.**

**Birinchi nusxa jo'natilib ikkinchi nusxa  
muassasaning o'zida saqlanadi.**

**Xizmat xatlari matnidan so'ng xatga imzo  
chekuvchi rahbar lavozimining nomi aniq  
ko'rsatilishi kerak.**

**Hujjat muassasa rahbari tomonidan imzolanadi.**



TIIAME

**Shaxsiy xatlar-kishilar o’rtasidagi fikr mulohazalarni, ichki his tuyg’ularni, dard alam, hayotiy kechinmalarni bayon qilishda keng qo’llaniladi.**

**Shaxsiy xatlar badiiy adabiyotlarda keng qo’llaniladi.**

**Shaxsiy xatlar rasmiy xatlardan quyidagi belgilari bilan farq qilinadi.**


**Rasmiy xatlarda zaruriy qismlari mavjud bo’ladi.**



Shaxsiy xatlar esa quyidagicha  
yoziladi.A.Qodiriyning “O’tgan kunlar”  
romanidagi Otabekning Mirzakarim  
qutidor yozgan ushbu xatini keltiramiz.



TIIAME



### Muxtaram qayn otamizga!

**Siz bilan meni qorong’u zindonlarga tushirib dor ostilarigacha toprtgan buning ila  
o’zining vaxshiyona tilagiga yeta olmagan keyin mrning tilimdan soxta taloq xati  
yozib darvoza yonidagi haydattirishiga muvaffaq bo’lgan va bir gunohsizni shahid  
etgan Homid ismli bir to’ng’izni nihoyat ikki yillik sargardonlik so’ngida yordamchilari  
bilan tuproqqa qorishishga muvaffaq bo’ldim... Sizni shonli hovlingizni yonida voqe  
bo’lgan bu kurash albatta sizni va uy ichingiz ham yor do’stlaringizni anchagini  
tinchsizlikka qo’ygan bo’lsa kerak... Sizdan bu ulug’ gunohi uchun avf so’rab  
haydalgan o’g’lingiz- Otabek Yusufbek hoji o’g’li??**



**Xatdan ko'rīnib  
turibdiki ikki yillik  
hijron azobini boshidan  
o'tkazgan qanchadan-  
qancha voqealar bayon  
etilgan.**



**Bizga ma'lumki, Navoiy davrida  
ham xatlarning o'rni juda katta  
bo'lgan.**



TIIAME

**Navoiy Husayn Boyqaroga yozgan xatlarida mazlumlarning arzu dodiga yetish, zolimlarni ish boshidan haydash, maktablar ochish...haqidagi tavsiyalarini berib o'tadi.**

**“Atrof- javonidan dog'i elning ariza doshti kelsa bor uzanur elni ko'p to'xtatilmasa. Har qaysisiga o'z holiga ko'ra iltifot qilinsa”.**

**“Yana ulkim, Majlis qurib chag'ir icharga ko'p hirs ko'rsatilmasa”.**

**“Ov va qushga mashg'ullik qilmoq ko'p bo'lmasa”.**



**“Shaharni idora qilish ishiga yaxshi  
e’tibor qilinsa. Andohkim, sharobxona,  
baytullutf, qimorxona bularga o’xshash  
nomashru ishlarni man qilinsa”...**



TIIAME

# Mustahkamlash uchun savollar.

- 1.Rasmiy va shaxsiy xatlar o’rtasida qanday farq bor.**
- 2.Javob xatni talab qiluvchi xatlarga nimalar kiradi.**
- 3.Ilova,tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat qanday xat hisoblanadi.**
- 4.Shaxsiy xat deganda nimani tushunasiz.**
- 5.Siz shaxsiy xat yozganmisiz va qanday mavzuda.Misollar keltiring.**
- 6.Badiiy adabiyotda uchragan shaxsiy xatlardan na’munalar keltiring.**



**E'TIBORINGIZ  
UCHUN  
RAHMAT!**